



O'RTA OSIYO OLIMLARI ILMIIY-MA'NAVIIY MEROSINING YOSH AVLOD TARBIYASIDAGI O'RNI

Shoniyozov Hayot Husan o'g'li

Navoiy viloyati Uchquduq tuman kasb-hunar maktabi Tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'rta Osiyo olimlari ilmiy-ma'naviy merosining yosh avlod tarbiyasidagi o'rni, umumbashariyat ma'rifatparvarligini yaratishda buyuk ajdodlarimiz bevosita ishtiroklari, buyuk allomalarimizning bizlarga qoldirgan ilmiy merosi to'g'risida to'liq bayon qilingan.

Kalit so'zlar: ilmiy-ma'naviy meros, umumbashariyat ma'rifatparvarlik, O'rta Osiyo olimlari, ma'naviy meros.

Kirish:

Ma'lumki, IX-XV asrlarni Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida shartli ravishda «Renessans» davri deb nomlashadi. Ma'naviyat va ma'rifatning nihoyatda gullab-yashnashi bu vaqt uchun xarakterli hisoblangan. Bu paytda qomusiy ilm egalari, ajoyib shoirlar, buyuk davlat arboblari yetishib chiqqan. Dunyoviy fanlarning jadallik bilan taraqqiy etishi keng tarjimonlik faoliyatiga ta'sir qiladi. Mazkur jarayon, ayniqsa xalifa Ma'mun davrida Bag'dodda «Bayt-ul-hikma» tashkil qilingan vaqtda tezlashdi. Yunon falsafasi va tabobati, hind hisobi, al-ximiya va ilmu nujumga doir asarlar arab tiliga o'girildi. Bunda Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan mutafakkirlar al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, al-Farobiy, Ibn Sino, al-Beruniy kabi mutafakkirlar ham yuqori rol o'ynadilar.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

IX-XII asrlar ma'naviyati va ma'rifati takomillashuvida XI asrning ancha ko'zga ko'ringan shoiri Yusuf Xos Hojib ham yuqori o'rin tutadi. Yusuf Xos Hojib



o‘zining yagona dostoni bo‘lmish “Qutadg‘u bilig” bilan mashhur hisoblanadi. Bu asar 1069 yilda yozilgan bo‘lib, uni shoir Qashg‘ar hokimi Sulaymon Asrlon qoraxonga bag‘ishlagan. Shu asari uchun unga Xos Hojib, ya’ni buyuk xonning maxsus maslahatchisi unvoni berilgan. Doston qahramonlari – hokim Kuntug‘di adolat ramzi, vazir Oyto‘ldi baxt ramzi sifatida, vazirning o‘g‘li O‘gdulmish aql ramzi sifatida tasvirlanadi.

Buyuk mutafakkir inson faqat jamiyatda, boshqa insonlar bilan suhbatda va foydali mehnatda chinakam kamolotga yetadi, degan fikrni ilgari suradi. Insonga foyda keltirmaydigan inson – o‘likdir, deb ta’riflaydi. Jamiyatda mehnat ahli – dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar hal etuvchi rol o‘ynaydi, deb tushuntiradi. Shuning uchun, Yusuf Xos Hojib hokimga adolatli bo‘lish, o‘zboshimchalik va qonunsizlikka yo‘l qo‘ymaslikni maslahat beradi.

Natijalar:

Yusuf Xos Hojib ilm va ma’rifatni jamiyatning rivojlanishiga, gullab-yashnashiga olib keluvchi kuch deb bilib, ularni egallashgan da’vat etadi. U insonni zulmat ichidagi uyga, bilimni esa ana shu uyni nurafshon qiluvchi mash’alga o‘xshatadi. Shoir insonlarni so‘zlaganda o‘ylab biron so‘z aytishga chaqiradi. Gapirgan so‘zingga ehtiyot bo‘l, boshing ketmasin, tilingga ehtiyoj bo‘l, tishing sinmasin. Ma’nodor so‘z donolik alomati sanaladi, bema’ni so‘z mahmadonagarchilik ahmoqlik alomatidir. Shu sabab inson ko‘proq quloq solib, kam gapirishi lozim deb aytadi. Yusuf Xos Hojib hamda kishining tashqi ko‘rinishi uning ichki ma’naviy dunyosiga xos bo‘lishiga yuqori ahamiyat qaratadi. Mutafakkir yolg‘onchi, munofiq odamlar jamiyat uchun zararli, bunday insonlardan uzoq turish kerak deydi.

Hozirda jahon ma’naviyati va ma’rifati saltanatida o‘z o‘rinlariga ega sanalgan ulug‘larimizni teran anglash, o‘rganish va ulug‘lash vaqti keldi. Biroq, deyarli 150



yillik mustamlakachilik, 70 yillik totatitar tuzum hukmronligi vaqtida davlatimiz yosh avlodi, Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganidek, "...necha yillar bizni tariximizdan, dinimizdan, ma'naviy merosimizdan g'ofil etishga urindilar, - natijada ular o'z xalqning tarixini, uning boy tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, axloqiy madaniyatidan bahramand bo'lish, o'rganishdan mahrum bo'lib keldi".

Muhokama:

Mustaqillik sababli o'rganish, tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lgach, ona zaminimiz ma'naviy merosini yaxshiroq tushunish kelajak yoshlarning vazifasi, shuning uchun, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi. Al-Xorazmiy Sharqning buyuk mutafakkiri, qomusiy olim hisoblanadi. Uning ilmunujum, geodeziya, geografiya va ayniqsa riyoziyot sohasidagi xizmatlari beqiyosdir. U arab, hind, lotin, yunon, fors tillarini bilgan. Xorazmiy bir qancha kitob va risolalarning muallifidir. Bulardan eng mashhuri "Kitob al-jabr va al-muqobala" asaridir. Bu asar riyoziyotda yangi mustaqil fan- algebraning vujudga kelishiga zamin yaratdi. U tenglamalarni yechishning ikki usulini – al-jabr, ya'ni qarama-qarshi ishoralarni yagona musbat ishoraga keltirish va al-muqobala, ya'ni bir xil hadlarni qarama-qarshi qo'yishni kashf etdi.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, buyuk allomalarimizning bizlarga qoldirgan ilmiy merosi ham buyukdir. Mazkur ilmiy merosdan bugungi zamon bilan uyg'unlashtirilgan ravishda foydalanish har bir bilim oluvchi uchun asosiy sanaladi. Allomaning tushuntirishicha, bolaning bilim olishga bo'lgan qiziqishi, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan sharoit asosiy o'rinni egallaydi. Oilada ota –onalar, ayniqsa, o'qimishli ota – onalar o'z bolalarining haqiqiy inson bo'lib kamol topishiga alohida e'tibor qaratishlari kerak.

Adabiyotlar ro'yxati:



1. Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik jamiyat barqarorligi garovi / Tuzuvchi: M.Alimova, O.Ernazarov. – Toshkent: O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2022.

2. Yurtimiz allomalari ilmiy-ma’naviy merosini o‘rganishning ahamiyati, Markaziy Osiyo va islom sivilizatsiyasi. Anjuman to‘plami. “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi”. – Toshkent: 2018.

3. N.A.Jumayeva. O‘rta Osiyo allomalarining ilmiy me‘rosi. Uslubiy qo‘llanma. Buxoro, “Durdona” nashriyoti. 2013.

4. Sagdullayev A., Ergashev F. O‘zbekiston tarixi fani bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. – T.: Yangi asr avlodi, 2009.